

Oilaga tayyorlashning ahamiyati



04.02.2023

Oilaga tayyorlashning ahamiyati

Bugun "Yer resurslari va kadastr" fakulteti dekan maslahatchisi Z.Hafizova, fakultet tyutorlari 3 -Talabalar turar joyida turadigan talaba-qizlarga oilaviy hayotga tayyorlashda ahamiyatga ega bo'lgan va qizlar bilishi zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishdi. Shuningdek, talaba-qizlar qanday axloqqa ega bo'lishi kerakli ularning kiyinish madaniyati va telefondan to'g'ri foydalanish odobi kabi mavzularda so'z yuritishdi. Shuningdek, tadbirning davomi fakultetimiz talaba-yigitlari joylashgan 5- Talabalar turar joyiga ham bo'lib o'tdi.



Unda qavat sardorlari, yoshlar ittifoqi yetakchilari ham ishtirok etishdi. Davra suhbatlar jarayonida milliy urf-odatlar va qadriyatlar masalasi xususida ham gapirib o'tishdi. Bu uchrashuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad esa talaba-qizlarni hamda talaba yigitlarni hayotga tayyorlash, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish hamda ma'naviyati va dunyoqarashini yuksaltirishdan iboratdir. Talabalarni takliflaridan kelib chiqib bir qator ishlar rejalashtirildi.

"Yer resurslari va kadastr" fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova axboroti